

## “SAB’AI SAYYOR” DOSTONIDA ANTROPONIMLAR SEMANTIKASI.

Urmonova Hurriyat

SamDU filologiya fakulteti 4-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11316379>

**Annotatsiya.** *Onomastika (nomshunoslik) ning eng katta va asosiy qismini antroponimlar egallaydi. Antroponimlar ham bir kategoriyadir. O‘z ichida yana mayda bo‘laklarga bo‘linadi. Maqolada Navoiyning “Sab‘ai sayyor”idan antroponimlarning sodda va qo‘shma shakllariga misollar keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *onomastika, antroponim, onomastika va uning turlari, antropoformantli, antrokomponentli.*

### SEMANTICS OF ANTHROPONYM IN THE EPIC "SAB'AI SAYYOR".

**Abstract.** *Anthroponyms occupy the largest and main part of onomastics. Anthroponyms are also a category. Inside itself, it is divided into small pieces. The article presents examples of simple and compound forms of anthroponyms from Navoi's "Sab'ai Sayor".*

**Key words:** *onomastics, anthroponyms, onomastics and its types, anthropoformant, anthrocomponent.*

### СЕМАНТИКА АНТРОПОНИМА В ЭПОСЕ «САБАЙ САЙЁР».

**Аннотация.** *Антропонимы занимают самую большую и основную часть ономастики. Антропонимы также являются категорией. Внутри себя он разделен на мелкие кусочки. В статье представлены примеры простых и сложных форм антропонимов из навоийского «Сабай Сайёр».*

**Ключевые слова:** *ономастика, антропонимы, ономастика и ее виды, антропоформант, антропокомпонент.*

O‘zbek nomshunosligi o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikning eng rivojlangan sohalaridan biriga aylandi. Aslida antroponimlar masalasi o‘tgan XI asrdayoq turkiy tilshunoslikning to‘ng‘ich asari Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asarida o‘z isbotini topgan edi. Nomshunoslik “onomastika” termini bilan ham yuritiladi. Onomastika-yunoncha so‘z bo‘lib, “nom qo‘yish san‘ati” degan ma‘noni bildiradi.

Hozirgi vaqtda bu termin ikki ma‘noda qo‘llaniladi: 1) ma‘lum bir til, xalq tarkibida qo‘llangan barcha atoqli otlarning yig‘indisi; 2) atoqli otlar, ularning shakllanishi va o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi. Rus tilida onomastikaning turli masalalariga bag‘ishlangan qator to‘plamlar ham nashr qilindi. Jumladan, “Ономастика” (Moskva, 1969), “Восточнославянская ономастика” (Moskva, 1972), “Этнография имён” (Moskva, 1971), “Ономастика и норма” (Moskva, 1976), “Историческая ономастика” (Moskva, 1977), “Ономастика Средней Азии” (Moskva, 1978) va boshqalar nashr qilingan. Turkologiyada ham V.V.Radlov, V.A.Gordlevskiy, N.A.Baskakov kabilar samarali ish olib borgan. O‘zbek tilshunosligida E.Begmatovning monografik tadqiqotlari onomastikaga, xususan, antroponimikaga tamal toshini qo‘ydi.

O‘zbek nomshunosligi bo‘yicha olib borilgan keng ko‘lamli tadqiqotlar o‘zbek onomastikasi sohasini bir qator monografiyalar, risolalar, izohli lug‘atlar, ko‘p sonli ilmiy maqolalar, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari bilan boyitdi. Jumladan bu soha bo‘yicha

E.Begmatov, Z.Do'simov, T.Nafasov, B.O'rinboyev, B.Yo'ldoshev, N.Oxunov, N.Uluqov, S.Qorayev, S.Naimov, G'.Sattorov, T.Enazarov, I.Xudoynazarov, R.Nuriddinova, S.Kenjayevo, Sh.Temirov, D.Yuldoshev, Q.Olloyorov, N.G'aniyev, I.Xolmuratov, N.Adizova, S.Axmedov, N.Mo'minova va boshqalar onomastika va uning yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan.

Hozirda "O'zbek onomastikasi", "O'zbek onomastikasi masalalari", "Tarixiy toponimika", "O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan", "Toponimika", "O'zbekiston viloyatlari toponimlari" kabi adabiyotlar hamda "O'zbek ismlari ma'nosi" (E.Begmatov), "Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati" (E.Do'simov, X.Egamov), "O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati" (T.Nafasov, V.Nafasova) kabi lug'atlar ham katta ahamiyatga egadir. "Onomastika" deb nomlanuvchi fanning asosiy vazifasi mazkur sohaning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, onomastik birliklarni o'rganish metodlari va boshqalar haqida talabalarga zarur tushuncha va ma'lumotni berishdan iboratdir.

Ma'lumki, onomastika tilshunoslikning har qanday atoqli otlarni, ularning paydo bo'lish va o'zgarish tarixini o'rganuvchi bo'limi, shuningdek tildagi barcha atoqli otlar yig'indisini o'zida ifodalaydi. "Onomastika" fani tildagi mavjud onomastik tizimlarni aniqlash va o'rganishni maqsad qilib qo'yadi. O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonunning qabul qilinishi o'zbek tilining respublikamiz hayotining barcha sohalarida to'liq amal qilishi uchun shart-sharoit yaratib berdi. Jumladan, til lug'at tarkibining bir qismini tashkil qilgan onomastik birliklarga munosabat tubdan o'zgardi. "Joy nomlarini tartibga solish to'g'risida" Vazirlar Mahkamasining alohida qarori e'lon qilindi.

Shuningdek, "Davlat tili haqida"gi Qonunning 24-moddasida "Barcha tarixiy nomlar va joylarning nomlari xalqning milliy mulki hisoblanadi va davlat tomonidan muhofaza qilinadi", – deb yozib qo'yildi. Darhaqiqat, tilshunoslikda atoqli otlar deb yuritilayotgan nomlar tilimizning bebaho tarixiy, madaniy va ma'naviy boyligidir. Bu boylik o'zbek tilida ko'p asrlar davomida asta-sekinlik bilan tarkib topib, shakllanib, rivojlanib kelmoqda. Atoqli nomlarning til (lisoniy) xususiyatlarini o'rganilish darajasiga qarab onomastika adabiy va dialektal onomastika, odatdagi va poetik onomastika, zamonaviy va tarixiy onomastika, nazariy va amaliy onomastika kabi turlarga bo'linadi.

Nazariy onomastika til va nutqdagi, adabiy va dialektal sohalarga tegishli atoqli nomlarning paydo bo'lishi, ularning nominatsiya (nomlanish) asoslari, rivojlanishi, shu jarayondagi turli xil o'zgarishlari, onomastik birliklarning nutqda qo'llanilishi, muayyan hudud va tillarda tarqalishi hamda onomastik birliklarning tarkibiy tuzilishini o'rganadi. Badiiy matnlardagi atoqli nomlarni tadqiq etish alohida muammo bo'lib, bu badiiy onomastika yoki onomopoetikaning asosiy vazifasidir. Onomastika, shuningdek, tilshunoslikning qiyosiy-tarixiy, struktur, genetik, areal, onomastik xaritalashtirish va boshqa usullarini qo'llagan holda, atoqli nomlarning fonetik, morfologik, derivatsion (yasalish, shakllanish), semantik, etimologik kabi jihatlarini ham o'rganadi.

Amaliy onomastika xorijiy tillarga mansub nomlarning transkripsiyasi, transliteratsiyasi, an'anaviy (talaffuz va yozilishiga ko'ra), tarjima qilinadigan va tarjima qilinmaydigan nomlarni aniqlash, "begona" nomlarni o'z tilda qanday yozish bo'yicha yo'riqnomalar tayyorlash, xorijiy tillardan o'zlashgan nomlardan yangi onomastik birliklar hosil qilish bilan, nom berish va

nomlarni o'zlashtirish masalalari bilan ham shug'ullanadi. onomastika o'z tarkibiga bir qancha bo'limlarni kiritgan. Dostonda shu bo'limlarning deyarli barchasi ishtirok etgan.

Ya'ni antroponimlar (laqab va ismlar), toponimlar (joy nomlari), gidronimlar (suv inshootlari nomlari), teonimlar (oloh va uning atributlari), zoonimlar (hayvon nomlari), fitonimlar (o'simlik nomlari), kosmonimlar (osmon jismlari nomlari), stratonimlar (geologik formatsiyalar nomlari) onomastik birliklar ishtirok etgan. Asardan yuqoridagi fikrlarni dalillash uchun misol keltiramiz: *//Halab shahrida bir badavlat xoja bor bo'lib, uning butun rasm-u odati mehmonnavozlikdan iborat edi. Uning xalq orasida obro'- e'tibori behad bo'lgani singari, mol-davlatining ham son-sanog'i yo'q edi. Bir katta mehmonxonasi bo'lib, unda qancha oshnagog'ayni bo'lsa, shuncha begonalar ham mehmon bo'lar edilar. O'zi nihoyatda rahmdil, tabiatan saxiy odam edi. Oti Axiy bo'lib, butun shahar eli ichida ma'lum va mashhur edi. U goh-goh otga minib, katta-kichik har xil ko'chalarda sayr qilib kezar, boshi berk ko'chalarga ham kirar, vayronalarni ham axtarar edi. Kim biron narsaga muhtoj bo'lsa, unga kerakli narsani berar edi//* parcha XXI-bob 1-iqlim musofirining afsonasidan keltirildi. Dostondagi **Axiy** ismini e'tiborga olamiz, E.Begmatovning "O'zbek ismlari ma'nosi" lug'atida shunday deyilgan: "Axiy (ar.) – do'st, birodar; yuksak mehr, saxovat, muruvvat egasi". Haqiqatda dostonda ham bu o'z isbotini topgan. Bu personajga tanlangan ismiga ham ma'no yuklatilgan. Qahramon va uning ismi o'rtasida bog'liqlik mavjud. Unga shunchaki bu nom qo'yilmagan edi.

*//Shoh Bahrom shunday ulug' shoh ediki, butun osmon ostidagi yer uning dargohi edi. U boshlab Suhayl yulduzidek tolega ega bo'lgach, Yaman mamlakati ustida yarqirab ko'rindi. Yaman uning nuriga g'arqu tuprog'i mushkdek muattar, har bir toshi haqiqdek jilvador bo'lgan kunlarda shoh Nu'mon unga otabeklik qilib, otalardek Shafqat-marhamat ayladi.*

*Munzir degan odam Bahromga o'rtoq, hamsuhbat, ajralmas do'st va hamroz-sirdosh edi. Ka'bada Ahmadi Mursal, ya'ni Muhammad payg'ambar qanday maqom tutgan bo'lsa, Munzir ham arablar ichida shunday obro'ga ega edi//* Lug'at xabar berishicha, Munzir (ar.) – ogohlantiruvchi; narigi dunyoda azob borligidan ogoh etuvchi. Bu nom Muhammad(sav)ning sifatlaridan biri bo'lgan. Xulosa shuki, asarda Nu'mon Yaman shohlaridan biri, Bahrom uning qo'lida tarbiyalangan. Munzir- uning o'g'li va asarda Bahromga do'st qilib tasvirlangan. Havornaq – Bahrom uchun qurilgan afsonaviy qasr bo'lib, tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, yer yuzida tengi yo'q muhtasham qasrlari bilan shuhrat topgan shahar bo'lgan. Bu qasrni Sinmor ismli me'mor qurgan edi.

*//Ota dunu (nokas, tuban) o'g'il sharafli yok iota latif-u o'g'il kasaf(kasofatli) bo'lishi mumkin va tabiiy. Masalan, Ozar o'g'li Halillulloh butlarni sindirgan, butparastlikka qarshi kurashgan kishi bo'lishiga qaramay, uning o'g'li but yasovchi bo'lib chiqdi. Yazdajurd bilan Bahrom ham xuddi shu sifatdagi odamlar edi. Bahromning otasi sadaf kabi past edi-yu, bolasi xuddi sadaf ichidagi gavhar kabi porloq edi. Bu ajablanarli hol emas. Bunisi nimaniki buzdi, unisi borin qaytadan tuzdi//* Bu XI-bob Bahrom tarixiga bag'ishlangan. Bu baytlarda shoir so'zdan foydalanish mahoratini zargarning asl la'ini tanlash mahoratiga qiyoslaydi va qimmatbaho toshni tanlash zoti asil odamni tanlashdek murakkab ishligini uqtiradi. "Ota tuban (xulqlig-u), o'g'il sharafli, bu (o'g'il) latif-u, u (ota) kasofatli bo'lishi mumkin". Halilulloh Ozar o'g'li. - butparastlikka qarshi bo'lgan odam, u butlarni sindirgan. Uning o'g'li esa, otasining aksi bo'lib,

but yasovchilik kasbini egallagan. Yazdajurd (Nizomiyda Yazdigird)-Bahromning otasi, sostoniyalar sulolasidan bo'lib, qadimiy Eronda 399-420 yillarda hukmronlik qilgan, zolim bo'lgan.

U haqda "...chun mamlakat egasi bo'ldi, go'yoki mulk egasiz qoldikim, ul zolim va nodon kishi erdi"- deb yozgani edi Alisher Navoiy. Bahrom binni Yazdajurd - sostoniyalar sulolasiga mansub Eron shohlaridan biri. "Otasidan so'ngra saltanat taxtiga o'turdi, otasi buzgonlarni tuzdi va aning o'rniga adolat ko'rguzdi". Sharq adabiyotida Bahrom an'anaviy obrazlardan biri bo'lib, u Firdavsiyning "Shohnoma", Nizomiy va Dehlaviylarning "Xamsa" asarlarida yetuk badiiy obraz darajasiga ko'tarilgan. U (Yazdajurd) nimani buzgan bo'lsa, bu (Bahrom) hammasini tuzatdi. Bu baytda tardi aks san'ati qo'llangan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'zbek tilida antroponimlar o'z tuzilishiga ko'ra ikkiga bo'linadi: antropokomponentli va antroformantli. Antropokomponentli qo'shma ismlarda har ikkala komponent ham so'z shaklida bo'ladi: Baxtigul, Dilorom, Gulchiroy kabi.

Antropoformantli ismlar mustaqil so'z va qo'shimchadan iborat bo'ladi: Turdi, Samandar kabi. Qo'shma antroponimlarni hosil qilishda ishtirok qiladigan ayrim leksemalar o'z xarakteriga ko'ra erkak va ayol ismlarining yasalishiga ko'ra farqlanadi. Chog'ishtiring: Barnoboy, Barnoxon; Quvonchbek, Quvonchoy. // ***Bu sirning ochilishidan Zayd Zahhob g'oyat vahimada bo'lsa ham ammo shohning unga ishonchi zo'rligini bilar edi. Nihoyat, uning bu xiyonatini ochish uchun tubandagicha tadbir ko'rildi, ya'ni ular ikkita gapiradigan to'ti topib, ikkalasini ham so'zlashga o'rgatadigan bo'ldilar. To'tilardan biri "Taxt ro'kashdur" (usti yaltiroq, ichi qaltiroq), desa ikkinchisi: "Musannifi g'ashdur" (kashfiyotchisi qallobdir), deyishi kerak edi.***

***Shu munosabat bilan ikkita mavzun-kelishgan va osmondek zangori to'ti topdilar//*** jumladagi Zayd Zahhob antroponimi antropokomponentli deb qabul qilinadi. Ularga alohida-alohida shaklda lug'atda quyidagicha ta'rif berilgan:

Zayd, Zayid (ar.) – tuhfa, in'om yoki ko'payish, qo'shilish; qar. Zaydulla; Zahhob-zargar, Zayd-zargarning ismi, bu so'zning lug'aviy ma'nosi "ko'paytirish", "qo'shish" bo'lib, hikoya qahramoni fe'l-atvoriga mos keladi. Uning hikoyada amalga oshirgan makkoraliklari-yu, kashfiyotlari bevosita so'zning lug'aviy ma'nosiga to'laqonli mos keladi.

## REFERENCES

1. A Navoiy. Sab' ai sayyor (nasriy bayoni bilan). – Toshkent, 1991.
2. Kenjayeva S. O'zbek tili antroponimlarining nominatsion-motivatsion asoslari va tavsifi: Filol.fan bo'yicha falsafa d-ri. (Phd) diss. – Qarshi, 2019.
3. Begmatov E. O'zbek tili antroponimikasi. – Toshkent, 2013. 604b.
4. Begmatov E. O'zbek ismlari ma'nosi (izohli lug'at). – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. 604b.